



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 4 (6)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

4

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Конвергенция и поляризация развитых и развивающихся стран в эпоху развития искусственного интеллекта.....	8
Mamatov B.S. Foreign investment is an important factor of economic growth.....	15
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya kompaniyasining rivojlanish tendensiyasi.....	22
Karimov Sh.X. Turizmni barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati.....	26
Raximov D.Sh. To‘qimachilik sanoatida diversifikatsiya darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili.....	30
Rashidova K. Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing faoliyati samaradorligini oshirish.....	32
Хакимов Д.Р. Процессы, возможности и ограничения экономической интеграции между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой.....	37
Olimjanova Sh.O., Eshonqulov I.N. O‘zbekistonda agrar munosabatlarni takomillashtirishda resurs tejankor texnologiyalarni joriy etish masalalari.....	42
Valikulov Sh.Z. O‘zbekistonda neft-gaz sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishning institutsional muammolari va yechimlari.....	48
Ganieva L.S. Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari.....	52
Axrorova N.U. Turizm xizmatlaridan tajriba iqtisodiyotiga o‘tish: evolyutsion tahlil.....	56
Kamilova A.N. Sanoat ishlab chiqarish korxonasida mehnatni normalashtirish menejmentini tashkil etish va takomillashtirish yo‘llari.....	61
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari.....	66
Abdiyeva D.K. Priority directions for improving the national logistics policy in Uzbekistan.....	69
Xalimova N.J. Kreativ turizm: nazariy asoslar va ta’riflar qiyosiy tahlili.....	74
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda qadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	78
Zaxirova G., Shavkatova N.O’. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari.....	82
Maxmudov H., Muxtarova G., Maxmudov H. Ekologik muommolar va ularning mamlakat iqtisodiyotga ta’siri.....	86
Umurzakova M.N., Gulahmadov Sh.A. Davlat ichki va tashqi qarzlarning ijobiy va salbiy jihatlar tahlili.....	89
Xasanov I.M. O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarining transformatsiyasi: tadbirkorlikni rivojlantirish omili sifatida.....	94
Abdullayev M.G’. Personalni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari va uning korxona samaradorligiga ta’siri.....	101
Адилов Б.Б., Абдуллаева М.К. Ўзбекистонда саноат корхоналарини ривожлантириш, тенденциялари.....	105
Абдуғаниев Ё.Ж. Яшил иқтисодиёт - барқарор ривожланиш мақсадларининг янги парадигмаси сифатида.....	112
Xusanboyeva T.M. Talabalarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda to‘garaklarning o‘rni va ahamiyati.....	116
Xashimova S.N. O‘zbekiston milliy yashil taksonomiyasi mohiyati va ahamiyati.....	120
Mitillayev I.T. Tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari.....	124
Бобоқулова М.Ғ. Инвестиция муҳити ва Ўзбекистондаги инвестиция жараёнларининг динамикаси.....	127
Bekberganova M.R. “O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari tushumlarining ekonometrik tahlili”.....	134
Рахимова М.Ш. Модернизация системы социальной защиты.....	138
Oqboyev A.R. Tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini xalqaro standartlar asosida oshirish yo‘llari....	142
Djumanova R.F. Aholi turmush sifatini baholashning metodologik yondoshuvlari.....	147
Mamatov B.S., Umurzakova M.N. Davlat tibbiy sug‘urta tizimida bepul xizmatlar, reimbursasiya va foydalanish shartlari.....	154
Ешимбетов У.Х. Қишлоқ хўжалигини ҳудудий ташкил этиш ва иқтисослаштиришнинг илмий асослари.....	158
Xodjaeva F.K. Sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish....	167
Yusupova M. Hududlarda ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	171
Abduxalilov B.Z. O‘zbekistonda IT provayderlar xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish: huquqiy va institutsional asoslar.....	175
Abdisamatov A.A. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	178

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

Abdusalomov I.J. Korxonalarda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va uning moliyaviy natijalarga ta'siri.....	182
Amirov L.F., Sokhibjonova S.S. Directions for increasing agricultural product exports in the context of a green economy.....	185
Boltaxo'jayeva I.O'. Ways to improve the enterprise management system based on modern management models.....	191
Dehqonov U.M., Sativaldiyeva G. Korxonalarda bo'nak to'lovlari hisobining moliyaviy hisobotga ta'siri va ularni optimallashtirish bo'yicha tahliliy yondashuvlar.....	195
Isoqova M.A. O'zbekistonda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari.....	199
Mamadaliyev B., Teshaboyev J. Korxonalarda mehnatga haq to'lash hisobini avtomatlashtirish va audit samaradorligini oshirish yo'llari.....	202
Poziljonov M., Teshaboyev X. Davlat muassasalarida asosiy vositalarning hisobini takomillashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	206
Rustamova F.A. Qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning roli.....	209
Tursunboyev Q.O. Transport xizmatlari ko'rsatish sohasida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	213
Umarov T.S. Hududlarda qurilish korxonalarini faoliyatini samarali tashkil etishni ekonometrik modellash va prognozlash.....	216
Xo'jaliyev A.O., Avilov N. Moliyaviy natijalar hisobi va auditda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....	220
Xomidov T.T., Arziboyeva R.S. Bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish omillari.....	223
Xusainov M. Sanoat korxonalarida mahsulot tannaxsini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishning metodologik asoslari va audit mexanizmlarini rivojlantirish.....	227
Begaliyeva M.A., Egamshukurova N.R. Jahon savdo tizimi va milliy iqtisodiyot uchun uning ahamiyati..	231
Gulimboyev S.I. Korxonalarda moliyaviy resurslar taqsimotining zamonaviy usullari.....	235
Ibodov J.Q. Moliyaviy tizimning xizmatlar sohalari va bo'g'inlari.....	239
Jumabayeva K.B. Xalqaro pensiya tizimi modellari va ularning mintaqaviy tamoyillari.....	243
Khusanova Z.R., Yo'ldasheva Z.U. Global trends in the development of international tourism services....	249
Sadullayev M.D. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarish.....	252
Tilabov N.T. Davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	256
Toshtemirov Y.N. O'zbekistonda logistik faoliyatni rivojlantirishning hozirgi darajasi.....	264
Toshtemirova Z.M. Mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyati.....	268
Uralov E.O. Surxondaryo viloyati xududida sanoatni shakllanishi va rivojlanishi.....	273
Xursanova F.Sh. Budjetlararo munosabatlarning iqtisodiy mazmuni.....	278
Yuldasheva G.A. Investitsion qarorlarni kabul qilishda moliyaviy tahlilning ahamiyati va roli	282
Абдуллаева Р. Тadbirkorlikning zamonaviy kuryentlari.....	287
Юлдашев А. Фаргона вилояти маҳаллаларида инвестиция фаоллигини оширишнинг институционал асослари	292
Abdumalikova Z., Razakova B.S. O'zbekiston sug'urta bozorini moliyaviy texnologiyalar (insurtech) asosida rivojlantirish: imkoniyatlar va yo'nalishlar.....	294
Azimov B.F. Milliy innovatsion tizimni boshqarishda tashkiliy-institutsional va moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning roli.....	300
Begaliyeva M.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini samarali joriy etishning ahamiyati.....	304
Dawletmuratov A.M. Xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va daromadlarni ko'paytirish mexanizmlari.....	308
Karimova L.S., Jabborov A.A. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot: holati, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	313
Maxmudov F.U. Oliy ta'lim muassasalarida moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari.....	319
Navruz-zoda L.B. Kichik biznes subyektlarining kadrlar salohiyati va bilim infratuzilmasiga bo'lgan talablari: Buxoro viloyati misolida.....	323
Nishonboyev D.E., Abdumalikov S.T. Chorvachilik tarmog'ini innovatsion boshqaruv asosida rivojlantirish istiqbollari.....	327

Nurmirezayeva N.R. Valyuta kursi o‘zgarishining eksport-importga ta’siri: O‘zbekiston misolida amaliy baholash.....	331
Rahimov A.M. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish.....	335
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tajribasi va uni joriy etish.....	339
Ravshanova M.M. Hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning elektron tijorat tizimidagi o‘rni.....	343
Ro‘ziboyeva M. O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi va iqtisodiy o‘sish darajasining o‘zgarish dinamikasi.....	347
Saidova F.K., O‘rozov Sh. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) va yashil iqtisodiyot: logistika sektorida boshqaruv strategiyalari.....	350
Sultonov S.N. Hududlarda klasterlarini investitsion - innovatsion rivojlantirish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida).....	354
Sultonova D.U. Korxona iqtisodiyotida resurslarni boshqarishning raqamli-integratsiyalashgan modelini takomillashtirish.....	358
To‘raxojayev H.H., Hoshimov P.Z. Islomiy banklarning ishlash tamoyili va islom moliya tizimining O‘zbekiston iqtisodiyotiga tadbiqu.....	362
Tursunova N.U. Bridging the innovation gap: development-focused entrepreneurship support and international intermediaries.....	368
Акрамова Г.А. «Роль женщин-ученых в совершенствовании механизмов коммерциализации ремесленных услуг Узбекистана в условиях цифровой экономики».....	374
Болтаев Ж.А. Трансформация банковского сектора в условиях цифровизации мировой экономики..	379
Жунайдуллаев М.А. Жанубий Кореяда рақамли таълим технологиялари орқали индивидуал спортчиларини тайёрлаш тизимини бошқаришнинг миллий хусусиятлари.....	384
Митрушова М.Л. Интеллектуальный капитал как ключевой фактор инновационного развития предприятия.....	388
Муродов О.У. Барқарор ривожланиш тушунчаси ва унинг иқтисодий, ижтимоий ҳамда экологик мезонлари.....	392
Саидова Г., Ибрагимова К., Қурбонов А. Рақамли трансформация шароитида енгил саноат корхоналари маҳсулотларининг халқаро рақобатбардошлигини ошириш стратегиялари.....	396
Sarkarov S.Z. O‘zbekistonda qurilish sohasining texnologik bisqichlar kesimida rivojlanishi.....	401
Minojiddinova N.M. Aksiyadorlik jamiyati korxonalarida xodimlarni samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.....	406
Ruzmetova I.Y. Xorazm viloyati iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni.....	410
Qudratov D., Ismoilov A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoqlar rivojidadagi o‘rni.....	414
Qodirov H.D. Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish yo‘llari.....	417
Kinjayev K.N. Banklarda kreditlar tasnifini yaxshilash orqali rentabellikni ta’minlash yo‘llari.....	421
Макушина А.Ю. Государственная поддержка экспортного потенциала субъектов малого предпринимательства в Республике Узбекистан.....	424
Rejapov X.X., Oxunjonova K.K. Ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini moliyaviy resurslarini shakllantirish va ishlatish yo‘nalishlari – Bek Baraka savdo majmuasi misolida.....	430
Махкамова Н.С. Роль государственно-частных партнерств (ГЧП) в продвижении устойчивого развития	434
Avilov N., Muhammadova G. Korxonalarda materiallar harakatining auditi va iqtisodiy tahlili.....	441
Abdullayeva R.G., Raxmonova I.S. O‘zbekiston qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash holati va rivojlanish tendensiyalari.....	444
Yusupova M.B. Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning ABC usuli.....	447
Toshpo‘latov M.A. Ta’lim loyihalarida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanishning xususiyatlari...	452
Hamidova Sh., Ahmadaliyeva H. Kapital qo‘yilmalarning samaradorlik tahlili.....	458
Хамракулов С.М. Собственный капитал в функционировании экономических субъектов Республики Узбекистан.....	461
Zayavitdinova N.M. Raqamli platformalar asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	465
Turg‘unov T.S. O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik taxlil qilishning ahamiyati.....	469
Ботирова З.Қ. Рақамли иқтисодиёт шароитида даромадларни бошқаришнинг хусусиятлари....	475
Бегимова Н.К. Меҳнат бозорида гендер тафовутларининг келиб чиқиш сабаблари.....	481

3. Пашковская Л.В. Особенности распределения производственных накладных затрат в международной практике управленческого учета. Доцент кафедры бухгалтерского учета, контроля и финансов ИПК и ПЭК, к.э.н., доцент, БГЭУ, http://edoc.bseu.by:8080/bitstream/edoc/9866/4/Pashkovskaya_36_42.pdf
4. Чарльз Хорнгрен, Жорж Фостер ва Шрикант Датар "Управленческий учет" Издательство Питер, 1008 стр. 2006, ISBN5-94723-174-3

UDK: 330.322

**TA'LIM LOYIHALARIDA MOLIYAVIY MABLAG'LARDAN SAMARALI
FOYDALANISHNING XUSUSIYATLARI**

**ОСОБЕННОСТИ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ СРЕДСТВ
В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОЕКТАХ**

FEATURES EFFECTIVE USE OF FUNDS IN EDUCATIONAL PROJECTS

Toshpo'latov Maxamadsoyib Abduxokimovich
Andijon davlat texnika instituti, o'qituvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimining bugungi holati va kelajakda qanday kadrlar tayyorlanishi beqiyos ahamiyat kasb etishligi va so'nggi yillarda mamlakatimizda aynan ta'lim sohasiga yo'naltirilayotgan xarajatlarning asosiy qismi davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilayotganligi yoritilgan. Shuning bilan, ushbu jarayon o'z navbatida ta'lim sohasida raqobatni kuchaytirish, davlat tomonidan ajratilayotgan mablag'lar salmog'ini kamaytirish va yangi moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish istiqbollari baholangan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, Davlat byudjeti, g'azna ijrosi, moliyaviy samaradorlik, iqtisod, kapital qo'shilmalar.

В этой статье говорится о нынешнем состоянии системы образования в Республике Узбекистан и о том, какие кадры в будущем приобретают огромное значение, и о том, что в последние годы основная часть расходов на образование в нашей стране финансируется за счет средств государственного бюджета. В связи с этим были оценены перспективы усиления конкуренции в сфере образования, сокращения объема государственных средств и развития новых источников финансирования.

Ключевые слова: Конституция, Государственный бюджет, казначейское исполнение, финансовая эффективность, экономика, капиталовложения.

This article refers to the current state of the education system in the Republic of Uzbekistan and which personnel in the future acquire great importance, and that in recent years the bulk of education spending in our country has been financed from the state budget. In this regard, the prospects for increasing competition in the field of education, reducing the amount of public funds and developing new sources of financing were assessed.

Key words: Constitution, State budget, treasury execution, financial efficiency, economy, capital investments.

Davlat uchun mamlakatdagi ta'lim tizimining bugungi holati va kelajakda qanday kadrlar tayyorlanishi beqiyos ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim sohasiga yo'naltirilayotgan xarajatlarning asosiy qismi davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilmoqda. Buning sababi shundaki, ta'lim sohasi hali to'liq iqtisodiy mustaqillikka

erishmagan, ya’ni u o‘zini to‘liq moliyalashtirish imkoniyatiga ega emas. Bu holat, o‘z navbatida, mamlakatning rivojlanish bosqichida ekanligi va barcha islohotlarning izchil hamda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganligi bilan izohlanadi. Vaqt o‘tishi bilan innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishi, aholining daromadlarining ortishi hamda ta’limning inson hayotidagi o‘rni yuksalib borayotgani natijasida davlat ta’lim muassasalari bilan bir qatorda xususiy ta’lim tashkilotlari ham shakllanib bormoqda.

Ushbu jarayon o‘z navbatida ta’lim sohasida raqobatni kuchaytirish, davlat tomonidan ajratilayotgan mablag‘larni kamaytirish va yangi moliyalashtirish manbalarini izlab topishga turtki bermoqda.

Konstitutsiya barcha qonunlar, farmonlar va kodekslarning asosiy huquqiy manbai hamda ularni belgilovchi bosh mezon sifatida e’tirof etiladi. Shu bois, mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng ta’lim tizimini boshqarish va uni me’yoriy jihatdan tartibga solish uchun zarur bo‘lgan huquqiy asoslar shakllantirilishida u eng muhim hujjat sifatida alohida ahamiyat kasb etdi.

Albatta, ta’limning har bir turi faoliyatini samarali tashkil etish va tartibga solish uchun tegishli me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3 - sentyabrdagi “Byudjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 414-sonli qarori alohida o‘rin tutadi. Mazkur qarorda barcha byudjet tashkilotlari, jumladan ta’lim muassasalari xarajatlarning tasnifi hamda ularni moliyalashtirish tartibi belgilab berilgan. Xususan, qarorga muvofiq, byudjet tashkiloti (ta’lim muassasasi) o‘zining asosiy vositalarini realizatsiya qilishdan tushgan mablag‘ning 50 foizi tegishli oliy ta’lim muassasasiga yo‘naltirilishi nazarda tutilgan.

Mazkur qarorda barcha byudjet tashkilotlarining, jumladan ta’lim muassasalarining xarajat turlari tasniflanib, ularning moliyalashtirish tartibi aniq belgilab berilgan (1-rasm).



1-rasm. Byudjet tashkilotlari xarajatlari smetasida xarajatlarning asosiy toifalari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 26-fevraldagi PF-3857-sonli “Xalq ta’limi muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni ta’lim tizimini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va uni takomillashtirish jarayonida muhim dasturiy-huquqiy hujjat sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Shu bois, mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilarning oylik ish haqlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 1-avgustdagi 164-sonli

“Respublika oliy ta’lim muassasalari xodimlari mehnatiga haq to’lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to’g’risida”gi qarori asosida belgilab to’lanadi. Ushbu qarorga muvofiq, professor-o’qituvchilarning oylik maoshlari ularning faoliyati davomida sarflangan vaqt bilan bir qatorda, mehnat samaradorligini ham inobatga oladi. Yuqorida tilga olingan me’yoriy-huquqiy hujjatlar ta’lim muassasalari byudjetini shakllantirish va ularni samarali boshqarishda asosiy huquqiy poydevor hisoblanadi. Shu jihatdan,

G’azna ijrosiga o’tgan byudjet mablag’lari oluvchilarining xarajatlari Moliya vazirligining G’aznachiligi hamda uning hududiy bo’linmalari orqali yagona g’azna hisob raqamidan moliyalashtiriladi. Xarajatlar yuqorida ko’rsatilgan xarajat guruhlari bo’yicha, har bir moddaga muvofiq tarzda, hududiy g’aznachilik hisob raqamlaridan amalga oshiriladi. Shuningdek, xarajatlar ichida I va II guruh xarajatlari birinchi navbatda mablag’ bilan ta’minlanadi. Bunda II guruh xarajatlariga ajratilgan mablag’lar o’tkazilmasdan turib I guruh xarajatlarini moliyalashtirish qat’iyan man etiladi (faqat ish haqi uchun ajratiladigan avans mablag’lari bundan mustasno).

Xarajatlarning III guruhi byudjet tashkilotlari tomonidan Respublika investitsiya dasturida har bir moliya yili uchun belgilangan limitlar doirasida moliyalashtiriladi. “Boshqa xarajatlar” deb nomlangan IV guruh mablag’lari ham belgilangan limitlardan kelib chiqib, quyidagi ketma-ketlik asosida sarflanadi: avvalo ovqatlantirish, so’ngra dori-darmon vositalari, kommunal xizmatlar va boshqa zarur xarajatlar. Mazkur qarorga muvofiq, byudjet tashkilotlari faoliyatida asosiy moliyaviy hujjat sifatida xarajatlar smetasi e’tirof etiladi. Shu munosabat bilan, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2014-yil 14-noyabrdagi 74-son buyrug’i bilan “Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag’lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro’yxatdan o’tkazish tartibi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi hujjat qabul qilingan. Ushbu buyruqqa ilova tarzida mazkur Nizom tasdiqlanib, unda byudjet tashkilotlari hamda byudjet mablag’larini oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini shakllantirish, tasdiqlash hamda ro’yxatdan o’tkazish tartibi batafsil reglamentlashtirilgan.

Mazkur Nizomda byudjet tashkilotlari faoliyati bilan bog’liq bir qator muhim jarayonlar belgilab qo’yilgan. Jumladan, unda quyidagilar nazarda tutiladi:

- xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish hamda tasdiqlash tartibi;
 - vaqtinchalik xarajatlar smetalarini shakllantirish va tasdiqlash;
 - byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg’armalari bo’yicha daromadlar va xarajatlar smetalarini tuzish va tasdiqlash;
 - byudjet mablag’larini taqsimlovchi organlar tomonidan ularning tasarrufidagi byudjet tashkilotlari hamda mablag’ oluvchilarning xarajatlar smetasi, daromad va xarajatlar smetasi, shuningdek, shtat jadvallarini ro’yxatdan o’tkazish tartibi;
 - nazorat va javobgarlikka oid masalalar hamda boshqa tegishli holatlar.
- Bundan tashqari, Nizomda quyidagi hujjatlarning namunaviy shakllari keltirilgan:
- byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasi;
 - kapital qurilishlar bo’yicha xarajatlar smetasi;
 - byudjet tashkilotlarining shtat jadvallari;
 - vaqtinchalik xarajatlar smetasi;
 - ro’yxatdan o’tkazish kartochkasi;
 - xarajatlar smetasidagi o’zgarishlar ro’yxati va boshqa tegishli hujjatlar.

Ushbu me’yoriy hujjat byudjet tashkilotlarida moliyaviy jarayonlarni tartibga solish, ularning shaffofligini ta’minlash hamda nazorat mexanizmini kuchaytirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida qayd etilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida aniqlanishicha, davlat tashkilotlari xarajatlari to’rt asosiy guruhga ajratilgan bo’lib, ular xarajatlar smetasiga muvofiq tarzda moliyalashtiriladi.

Ushbu guruhlar ichida eng katta ulushni I guruh tashkil etadi, ya’ni ish haqi va unga tenglashtirilgan to’lovlar. Shu sababli, ta’lim muassasalarida faoliyat yurituvchi pedagog xodimlar va xizmat ko’rsatuvchi ishchilarning ish haqini hisoblashning muqobil variantlarini ishlab chiqish hamda hisob-kitoblarning aniqligini ta’minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Mamlakat

taraqqiyotida oliy ta’lim muassasalari alohida o‘rin tutadi, chunki aynan ular jamiyat uchun zarur bo‘lgan malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlaydi. Garchi oliy ta’lim muassasalari xarajatlarining asosiy qismi o‘z mablag‘lari, ya’ni asosan to‘lov-shartnoma asosida ta’lim olayotgan talabalar to‘lovlari hisobidan qoplanayotgan bo‘lsa-da, ular byudjet tashkiloti maqomiga ega bo‘lganligi sababli, bu mablag‘lardan oqilona va samarali foydalanishni ta’minlovchi huquqiy asosni yaratish zarur hisoblanadi.

Darhaqiqat, mamlakatimizda ta’lim sohasini rivojlantirish yo‘lida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu jarayonda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrda 1030-sonli “Ilm-fan va ta’lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo‘shimcha haq to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi qarori asosida ilmiy darajali mutaxassislarga qo‘shimcha to‘lov tizimi joriy qilindi. Ushbu mexanizm ta’lim muassasalarida ilmiy salohiyatni oshirish, malakali kadrlarni rag‘batlantirish hamda ilmiy faoliyatni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Mazkur hujjatning qabul qilinishi davlat tomonidan mamlakatimizda ilmiy Monografiyalarni rivojlantirishga qaratilgan moliyaviy mexanizmlardan yanada samarali foydalanish boshlanganini anglatadi. Qarorga muvofiq, fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega shaxslarga (shu jumladan, xorijiy mamlakatlarda tenglashtirilgan darajalar egalariga) lavozim maoshining 30 foizigacha, Fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga ega bo‘lgan shaxslarga esa lavozim maoshining 60 foizigacha qo‘shimcha haq to‘lash tizimi joriy etildi. Ushbu mexanizm mamlakatda ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi kadrlarning moddiy rag‘batini oshirish, ilmiy izlanishlarga qiziqishini kuchaytirish va ilmiy salohiyatni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Binobarin, bu fikrni O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli qonunining qabul qilinishi bilan asoslash mumkin. Mazkur qonun 11 bob va 75 moddadan iborat bo‘lib, unda ta’lim sohasiga oid asosiy tushunchalar, ta’lim prinsiplari, tizimi, turlari va shakllarining mazmuni batafsil yoritilgan. Shuningdek, qonunda ta’lim tizimini boshqarish, ta’lim faoliyatini tashkil etish va uning nazoratini amalga oshirish tartibi, ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi, ta’lim oluvchilar hamda ularning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillarining huquq va majburiyatlari belgilangan.

Bundan tashqari, qonunda ta’lim jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish, nodavlat ta’lim tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash, ta’lim muassasalarini attestatsiya va akkreditatsiyadan o‘tkazish, xorijda olingan ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarni tan olish, ta’lim sohasidagi hujjatlarga apostil qo‘yish tartibi, shuningdek, ta’limni moliyalashtirish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari hamda ta’lim sohasidagi xalqaro hamkorlik aloqalari yoritilgan. Qonun, shuningdek, ta’lim to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik masalalarini ham o‘z ichiga oladi, bu esa ta’lim tizimining barqarorligi va huquqiy asoslarda faoliyat yuritishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Qonunning 63-moddasiga muvofiq, davlat ta’lim muassasalari ta’limni rivojlantirish jamg‘armalarini qonunchilikda belgilangan tartibda shakllantirishi mumkin. Ushbu jamg‘armalar davlat va xususiy tashkilotlar, yuridik hamda jismoniy shaxslar, shu jumladan xorijiy subyektlar ajratmalari va boshqa qonuniy manbalar hisobidan moliyalashtiriladi. Qonunda ta’lim sohasidagi davlat-xususiy sheriklik ham ta’riflanib, u davlat va xususiy sheriklarning o‘z resurslarini ma’lum muddatga birlashtirishga asoslangan hamkorlik sifatida belgilangan. Shuningdek, nodavlat ta’lim tashkilotlari ana shunday sheriklik asosida tashkil etilishi mumkin.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda oliy ta’limni modernizatsiya qilish va tizimni yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar jadallashdi.

Ayniqsa, e’tibor oliy ta’lim muassasalarining akademik va moliyaviy mustaqilligini ta’minlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Shu maqsadda, 2020-yil yanvar oyidan boshlab 10 ta oliy ta’lim muassasasiga moliyaviy mustaqillik berilgan bo‘lsa, keyinchalik bu jarayon O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-60- 61-son qarorlari asosida yanada kengaytirildi.

Mazkur qarorlar 2021-yil 24-dekabrda qabul qilingan bo‘lib, ularga muvofiq mamlakatimizda 36 ta oliy ta’lim muassasasiga moliyaviy mustaqillik berilayotganligi tasdiqlandi. Shuningdek, 2022-

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

yil 1-yanvardan boshlab ushbu ta’lim muassasalariga bir qancha yo‘nalishlar bo‘yicha mustaqil qarorlar qabul qilish vakolati berildi.

Oliy ta’lim tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar 2022-yilda ham izchil davom ettirildi. Shu doirada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 16-iyundagi “Davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ- 279-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi “Moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta’lim muassasalarida davlat buyurtmasi (davlat granti) asosida kadrlar tayyorlash uchun O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetidan moliyalashtirish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 419-son qarori qabul qilindi. Mazkur hujjatlar oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy mustahkamligini ta’minlash hamda ularning iqtisodiy mustaqilligini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ushbu qarorlar asosida “Moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta’lim muassasalarini bir talaba uchun to‘g‘ri keladigan o‘rtacha xarajat miqdoridan kelib chiqib moliyalashtirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlangan. Mazkur Nizomda oliy ta’lim muassasalarini bazaviy normativlar asosida byudjet mablag‘lari hajmini hisoblash tartibi, davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirish mexanizmlari, shuningdek, ta’lim sohalari bo‘yicha professor- o‘qituvchilar mehnatiga haq to‘lash xarajatlarini o‘z ichiga olgan bir nafar talabani o‘qitish uchun joriy xarajatlarning bazaviy normativlarini aniqlash jadvali ishlab chiqilib, tasdiqlangani belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 2-maydagi “Davlat oliy ta’lim muassasalari, respublikadagi xorijiy va nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari talabalarini moddiy hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 181-son qarori oliy ta’lim tizimida talabalarni qo‘llab-quvvatlashning yangi moliyaviy mexanizmini joriy etishga qaratilgan.

Mazkur qaror asosida davlat oliy ta’lim muassasalarining qo‘shma ta’lim dasturlari, respublikadagi xorijiy oliy ta’lim tashkilotlari filiallari hamda nodavlat oliy ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalarini moliyalashtirish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, nodavlat oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan yetim yoki ota- onasining (yoki qonuniy vakillarining) qaramog‘idan mahrum bo‘lgan talabalar uchun ijtimoiy ta’minot yordami oziq-ovqat, kiyim-kechak va sanitariya vositalarini xarid qilish xarajatlarini moliyalashtirish tartibi ham belgilandi.

Qarorga muvofiq “Davlat oliy ta’lim muassasalarining qo‘shma ta’lim dasturlari asosida tahsil olayotgan hamda xorijiy oliy ta’lim tashkilotlari filiallari va nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari bakalavriat bosqichi talabalariga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalarini moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizom”, shuningdek, “Nodavlat oliy ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan yetim va ota- onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan talabalar uchun oziq-ovqat, kiyim-kechak va sanitariya vositalarini xarid qilish xarajatlarini moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizom” tasdiqlandi.

Mazkur qarorni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar 2023-yilda O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetidan, xususan, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga ajratilgan mablag‘lar doirasida, 2024-yildan boshlab esa davlat byudjeti parametrlari tarkibida moliyalashtirilishi belgilab qo‘yilgan.

1-jadval

OTM xarajatlarini moliyalashtirishda jalb etilgan byudjetdan tashqari mablag‘lar tarkibi, mlrd. so‘m.

Ko‘rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Oliy ta’lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirishda foydalanilgan byudjetdan tashqari mablag‘larning umumiy summasi - jami	1533,7	2053,1	2415,6	3891,1	5481,9	5995,4
jumladan						

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” jurnali 4-son 2026 yil

to'lov-kontrakt mablag'lari	1475,7	1994,7	2373,1	3816,3	5384,9	5900,9
tadbirkorlik asosida ishlab topilgan mablag'lar jami	58	58,4	42,5	74,7	97	94,4
Jumladan						
xo'jalik shartnomalari	3,3	6	4,2	9,6	10,9	12,4
qo'shimcha ta'lim xizmatlari	16,8	17,5	12,9	17,9	19,3	18,5

Manba: Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

2018-2023-yillar davomida O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining byudjetdan tashqari moliyaviy manbalari sezilarli darajada kengaydi. Agar 2018-yilda jami mablag'lar 1 533,7 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 5 995,4 mlrd so'mga yetib, 3,9 barobar o'sdi. Moliyalashtirishda eng yirik ulushni to'lov-kontrakt tushumlari egallamoqda: 2018-yilda 1 475,7 mlrd so'm bo'lgan bu ko'rsatkich, 2023-yilda 5 900,9 mlrd so'mga yetib, to'rt barobarga yaqin oshdi. Bu esa oliy ta'lim tizimining asosan to'lovli ta'lim asosida moliyalashtirilayotganini ko'rsatadi. Tadbirkorlik faoliyati orqali tushgan mablag'lar hajmi 2018-yildagi 58 mlrd so'mdan 2023-yilda 94,4 mlrd so'mga yetgan (1,6 barobar o'sish). Xususan, xo'jalik shartnomalari bo'yicha tushumlar 3,3 mlrd so'mdan 12,4 mlrd so'mga, qo'shimcha ta'lim xizmatlari esa 16,8 mlrd so'mdan 18,5 mlrd so'mga oshgan. Umuman olganda, byudjetdan tashqari moliyalashtirish manbalari hajmi ortgan bo'lsa-da, ularning diversifikatsiyasini chuqurlashtirish va ilmiy-innovatsion faoliyatdan tushadigan daromadlar ulushini kengaytirish dolzarb bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar nafaqat mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishga, balki oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy manbalarini kengaytirish hamda ularning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ushbu o'zgarishlar ta'lim muassasalariga o'z mablag'larini yanada oqilona boshqarish, moliyaviy mustaqillikni ta'minlash va sifatli ta'lim xizmatlarini rivojlantirish imkonini bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Haydarov, N.H. Malikov, T.S. (2009). Moliya: Umumdavlat moliyasi. Toshkent: Iqtisod-moliya.
2. Ibragimov, K. (2018). Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning tashkiliy-uslubiy asoslarini takomillashtirish (Oliy ta'lim muassasalari misolida). Xalqaro moliya va hisob, (1), fevral.
3. Odilov, E. (2012). O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimidagi byudjet tashkilotlarida moliyaviy nazoratni takomillashtirish. PhD Monografiyasi. Toshkent.
4. Rejapov, X. (2023). Oliy ta'lim va mehnat bozori xizmatlari o'rtasidagi munosabatlarni takomillashtirishning metodologik asoslari. DSc Monografiyasi avtoreferati. Toshkent.
5. Saidov, M.X. (2011). Oliy ta'lim tizimida moliyaviy boshqaruv. Toshkent: Tafakkur-Bo'stoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3- sentyabrdagi "Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 414-sonli qarori
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 26-fevraldagi PF-3857-sonli "Xalq ta'limi muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 1-avgustdagi 164-sonli "Respublika oliy ta'lim muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrda 1030-sonli "Ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash tartibi to'g'risida"gi Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli qonuni